

**INGLIZ TILIDAGI FUTBOL TERMINLARINI O‘ZBEK TILIGA  
TARJIMA QILISHDAGI MUAMMO VA YUTUQLAR.**

*Ergashov Hurmatillo Solijon o'g'li*

*O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [tilloharlamov@gmail.com](mailto:tilloharlamov@gmail.com)*

*Tel: +998 90 633 66 99*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilidagi futbol terminlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar, yechimlar va yutuqlar yoritilgan. Tarjimada kontekstga moslik, xalqaro tajriba, texnologik yangiliklar va sport jurnalistikasi tili alohida e‘tiborda tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** futbol, termin, tarjima, o‘zbek tili, lingvistika, VAR, offside

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные трудности и достижения в переводе английских футбольных терминов на узбекский язык. Особое внимание уделяется контексту, международному опыту, технологическим новшествам и языку спортивной журналистики.

**Ключевые слова:** футбол, термин, перевод, узбекский язык, лингвистика, VAR, офсайд

**Annotation:** This article explores the main challenges and accomplishments in translating English football terminology into Uzbek. The analysis focuses on contextual relevance, international practice, technological innovations, and the language of sports journalism.

**Keywords:** football, terminology, translation, Uzbek language, linguistics, VAR, offside

**KIRISH:** Futbol bugungi kunda global darajadagi eng ommaviy sport turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, futbolga oid terminlarning xalqaro miqyosda aniq va tushunarli tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Terminlar — har bir sohaga xos bo‘lgan maxsus lug‘aviy birliklar bo‘lib, ular aniq tushunchalarni ifodalaydi. Bunday terminlar qisqa, aniq va ko‘pincha madaniy konnotatsiyalarga ega bo‘ladi. Tarjima jarayonida kontekst, auditoriya va xalqaro qo‘llanilishi hisobga olinmasa, ma‘nolar noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. O‘zbek tilshunosi D. Murodov (2022) esa: “Terminlarni milliyashtirishda ularning xalq ongida qanday qabul qilinishi, tushunarli bo‘lishi va aniq ifoda topishi muhimdir.”

B. Ashurov: “Futbol terminlarining tarjimasi ommaviylik va aniqlik o‘rtasidagi muvozanatni topishni talab qiladi.” Futbol terminlari o‘zining ixchamligi, metaforali xususiyati va kontekstga bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Bunday terminlarning o‘zbek

## **"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

tilidagi muqobillarini topish doimo ham oson kechmaydi. Masalan, «offside» (o'yindan tashqari holat), «hat-trick», «pressing», «winger», «corner kick» (burchak to'pi), «save» (to'pni qaytarish) kabi atamalar ko'p hollarda asl shaklida qoldirilib, o'zbek tiliga to'liq tarjima qilinmaydi. Shuningdek, darvozabonni ingliz tilida «keeper» deb atash ham o'zbek tilida keng ishlatilmoqda. Bu holatlar futbol muxlislari va jurnalistlar orasida ko'nikmaga aylangan.

### **Lingvistik olimlarning fikrlari**

Lingvist olim A.Karimovning ta'kidlashicha, "sport terminlarini tarjima qilishda asliyatini saqlab qolish yoki o'zbek tiliga mos keladigan ekvivalentlarini topish zarurati o'rtasida doimiy muvozanat mavjud" (Karimov, 2021). Shuningdek, B.Ashurovning fikricha, "terminlarning mahalliyashtirilishi ularning xalq orasida keng ommalashuvi uchun muhimdir, biroq ba'zi hollarda xalqaro terminlarni o'zgartirmasdan ishlatish ham maqsadga muvofiqdir" (Ashurov, 2020).

Chet ellik olimlardan J.Browning fikricha, "futbol terminlarining tarjimasida har doim madaniy va lingvistik jihatlar hisobga olinishi kerak, chunki aynan shu jihatlar terminlarning to'liq va to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi" (Brown, 2019). Shuningdek, taniqli sport lingvisti P.Smithning qayd etishicha, "terminlarni to'liq tarjima qilishdan ko'ra, ba'zan xalqaro shaklida saqlab qolish terminning aniq tushunilishi uchun foydaliroq bo'ladi" (Smith, 2017).

### **Tarjima jarayonidagi yutuqlar**

So'nggi yillarda o'zbek tilida sport jurnalistikasi va futbolga oid lug'atlar shakllanib, mazkur sohada katta yutuqlarga erishildi. Ayrim terminlarning, masalan "penalty" so'zining «penalti» shaklida umumlashuvi kabi holatlar tarjima jarayonidagi yutuqlarga misol bo'la oladi. Shuningdek, mahalliy media vositalarida futbol atamalarini ommalashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ijobiy natijalar bermoqda.

1. Terminlarning kontekstga mosligini hisobga olish "Pressing" termini futbol kontekstida «raqibga bosim o'tkazish» deb tarjima qilinadi. Ammo siyosiy matnda bu so'z «siyosiy bosim» ma'nosini anglatishi mumkin. Demak, tarjimada aynan sport konteksti e'tiborga olinishi kerak. P. Smith (2017) shunday deydi: "Tarjimada termin o'z kontekstida tahlil qilinmasa, u butunlay boshqacha ma'no kasb etishi mumkin. Ayniqsa, sport terminologiyasida bu holat tez-tez uchraydi."

2. Xalqaro amaliyotda keng tarqalgan terminlarni o'zlashtirish "Hat-trick", "VAR", "penalty" kabi atamalar aksariyat tillarda aynan inglizcha shaklida qabul qilingan. Bu ularning xalqaro maqomga ega bo'lganidan dalolat beradi. J. Brown (2019): "Xalqaro sport terminlarining bir xil shaklda saqlanishi global auditoriya uchun yagona tushuncha maydonini yaratadi."

3. Mahalliy til me'yorlariga mos va keng ommaga tushunarli bo'lishini ta'minlash\*\*\ "Save\" so'zining o'zbekcha ekvivalenti sifatida "to'pni qaytarish" iborasi ko'proq tushunarli. Shu bilan birga, \"corner kick\" o'rniga "burchak to'pi" yoki

**"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

“burchak zarbasi” deyish o‘zbek tili me’yorlariga mos keladi. D. Murodov (2022):  
“Terminlarni milliy lashtirishda ularning xalq ongida qanday qabul qilinishi, tushunarli bo‘lishi va aniq ifoda topishi muhimdir.”

4. Terminlarning o‘zbek tilidagi mavjud ekvivalentlarini faolroq ishlatish "Goalkeeper" o‘rniga “darvozabon”, "offside" o‘rniga “o‘yindan tashqari holat” degan so‘zlar mavjud va ular O‘zbekistonda ommalashib bormoqda. Bu o‘zbek terminologiyasini boyitadi. B. Ashurov (2020): “O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan ekvivalentlarni taklif qilishning o‘zi kifoya emas — ularni faol qo‘llash orqali ommaviylashtirishga erishish mumkin.”

### **XULOSA**

Futbol terminlarini tarjima qilish jarayonida tilshunoslik, jurnalistika, madaniyat va zamonaviy texnologik omillarni hisobga olish zarur. Har bir termin kontekstda tahlil qilinib, imkon qadar milliy tilga moslashtirilgan holda ishlatilsa, bu nafaqat tushunarlikni, balki til rivojini ham ta’minlaydi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Ashurov, B. (2020). O‘zbek tilidagi futbol terminlari. Filologiya masalalari, №4.
  2. Brown, J. (2019). Football terminology in translation. International Journal of Sports Linguistics, 12(3).
  3. Smith, P. (2017). Linguistic challenges in sports translation. Sport Translation Journal, 8(2).
  4. Yunusov, S. (2022). Zamonaviy futbol atamalari. SamDU Ilmiy Axborotnomasi, №2.
- Turdialiyeva, S., & Jalolova, S. (2024). INTEGRATED METHODS IN MODERN LANGUAGE TEACHING. Builders Of The Future, 4(04), 322-329.
- Jalolova, S., & Turdialieva, S. (2023). THE EFFICIENCY OF USING DIFFERENT MODERN METHODS IN LANGUAGE TECHING. Builders Of The Future, 1(01).